

## **SHARQ MUTAFAKKIRLARINING IJTIMOIIY MOTIVLAR BO‘YICHA QARASHLARI**

**Yo‘ldoshev Javlon Ablanazar o‘g‘li,**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti “Psixologiya” kafedrasida assistent o‘qituvchisi*

[yoldoshevjavlon37@gmail.com](mailto:yoldoshevjavlon37@gmail.com)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada sharq mutafakkirlarining ijtimoiy motivlar bo‘yicha qarashlari, ijtimoiy motivlarning shaxs ijtimoiylashuviga ta’siri, motiv va motivatsiya nazariyalari, ijtimoiy motivlarning shaxs qaror qabul qilishiga ta’siri atroflicha o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:** sharq mutafakkirlari, ijtimoiy motivlar, motiv, motivatsiya, qaror qabul qilish, shaxs rivoji, psixologik rivojlanish, ijtimoiylashuv.*

***Аннотация.** В данной статье всесторонне рассматриваются взгляды восточных мыслителей на социальные мотивы, влияние социальных мотивов на социализацию индивида, теории мотивов и мотивации, а также влияние социальных мотивов на принятие решений индивидом.*

***Ключевые слова:** восточные мыслители, социальные мотивы, мотив, мотивация, принятие решений, личностное развитие, психологическое развитие, социализация.*

***Abstract.** This article comprehensively examines the views of Eastern thinkers on social motives, the influence of social motives on the socialization of the individual, theories of motives and motivation, and the influence of social motives on individual decision-making.*

***Keywords:** Eastern thinkers, social motives, motive, motivation, decision-making, personal development, psychological development, socialization.*

**Kirish.** Sharqda har doim ilm eng muhim qadriyat hisoblanib kelgan. Shuning uchun ta’lim - tarbiya masalasi bilan qariyb barcha olimlar shug‘ullanishgan. O‘zlarining buyuk asarlari bilan butun dunyoni hayratga solgan ulug‘ mutafakkirlarimizning barcha asarlarida ham ta’lim - tarbiyaga alohida e’tibor berilgani diqqatga sazovordir. Ularning ta’lim - tarbiya masalasiga falsafiy, diniy, axloqiy, pedagogik va psixologik tomondan yondashganligini kuzatish mumkin. Biz quyida sharq mutafakkirlarining ta’lim olish jarayoniga, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi psixologiyasiga taalluqli bo‘lgan qarashlarini, fikr - mulohazalarini ko‘rib chiqamiz.

O‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda qator olimlar, mutafakkirlar yashab ijod etgan. Ular faqat dinga taalluqli fanlardangina rivojlanib qolmasdan, ilm-fanning shunday sohalari. riyoziyot, falsafa, astronomiya, meditsina, pedagogika, anatomiya, etika-estetika, psixologiya va hokazo fanlar bo‘yicha butun jahon tan oladigan darajada ilmiy asarlar yaratgan. Bu asarlarni faqat O‘rta Osiyo kitobxonlari o‘qib qolmasdan, balki butun jahondagi taraqqiyparvar mutafakkirlar ham o‘quv risolasi sifatida foydalangan, ana shunday olimlardan biri Abu Nosir Muhammad Ibn Tarxan (Al Farobiy)-870-950 yillarda Farob shahrida tug‘ilgan. Farobiy Aristotel va Platonning ishlarini O‘rta Osiyoda keng ommalashtirgan, shuning uchun g‘arbda ikkinchi muallim degan nom olgan. Farobiy yozgan asarlaridan bizning e’tiborimizga falsafa, pedagogika,

psixologiya, etika-estetika bo'yicha asarlari qiziqtiradi. Farobiyning fikricha muhit va tarbiyaning ta'sirida inson shaxsining axloqiy sifatlari shakllanadi. Axloq-tushunchasi Farobiy inson xarakteri bilan chambarchas bog'liq deb hisoblaydi. Chunki xarakterdagi har bir xislatlarni yaxshi tomonga qaratib o'zgartirish mumkin.

**Muhokama va natijalar.** Abu Rayhon Beruniy (953-1050) o'zining qator falsafiy asarlarida psixologik va pedagogik qarashlarini bayon qiladi. Bular inson shaxsining shakllanishi, axloqiy kamoloti, aql-idroki, tafakkuri haqida fikrlaridir. Beruniyning «qadimgi avlodlar obidalari» asarida ba'zi odamlar shaxsining shakllanishida ularning xulq – atvorida mavjud bo'lgan ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik, xushomadgo'ylik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlarning shaxs taraqqiyotiga salbiy ta'siri haqida to'xtalib o'tadi. Bu illatlarga qarama-qarshi oqil odamlar haqida o'z fikrini bayon qiladi. Beruniyning fikricha oqil odamlarning taraqqiyoti va uning ruhiyatining rivojlanishi hech bir to'siqlarsiz ijobiy rivojlanishga ega bo'ladi deb tushuniladi.

Ibn Sino birinchi bor tarbiyada suhbat metodini qo'llashni taklif etadi. Bolalarni o'qitishda va tarbiyalashda bir guruhda yoki jamoada tarbiyalansa, ular faoliyat turlarini amalga oshirishda bir-biriga moslashadi, bir-biriga hurmat- e'tibori kuchayadi va jamoaning ta'sirida keraksiz odatlarni yo'qotadi deb ta'kidlaydi. Bu bilan u birinchi bor ijtimoiy psixologiya asoslariga ham asos soldi. Bundan tashqari Ibn Sino tarbiya metodlari haqida ham to'xtalib o'tadi. Tarbiya metodlaridan oila tarbiyasi, oilada bola tarbiyasini amalga oshirishda regional xususiyatlarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunarga yo'naltirish to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta'lim - so'z va ko'nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish - harakat ekanligini ko'rsatadi. Muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglanib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan.

Shaxslar va guruhlarning motivatsiya mexanizmlarini tushunishning ahamiyati ijtimoiy tizimlarda sub'ektlarning xatti-harakatlari ularning ichki motivatsion sabablari (motivlari) bilan belgilanadi.

Ijtimoiy motivlarga misollar.

Burch va mas'uliyat hissi.

Jamiyat oldidagi burchingizni bajarish yoki foydali bo'lish zarurligini tushunish.

Jamoaning bir qismi bo'lish istagi.

Umumiy ishda ishtirok etish va jamoa yoki kompaniyaga qo'shgan hissangizning ahamiyati.

Maqom va mavqega ehtiyoj.

Boshqalar bilan munosabatlarda ma'lum bir pozitsiyani egallash yoki yuqori ijtimoiy mavqega ega bo'lish istagi.

Ijtimoiy hamkorlik.

Birgalikdagi faoliyatga va boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarga e'tibor qaratish.

Ijtimoiy motivlar darajasi.

Keng ijtimoiy.

Majburiyat, ma'suliyat yoki faoliyatning ijtimoiy ahamiyati kabi umuminsoniy qadriyatlar va tushunchalar bilan bog'liq.

Tor ijtimoiy (pozitsion).

Guruhda ma'lum bir mavqega erishish, shaxslararo munosabatlarda ma'qullash va tan olishga qaratilgan.

XX asming yetuk ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913-yilda yozilgan “Turkiy Guliston yohud axloq” asarida bola tarbiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati falsafiy-pedagogik jihatdan tushuntirib berilgan. Olim ta'lim va tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o'рни ularning o'zaro hamkorligini ulug'laydi. Uning talqiniga qaraganda, barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimlarga ega bo'lishi, yaxshi bir kasbning sirlarini egallashi ko'p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg'unligiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Sharq allomalari asarlaridagi kasb tanlash, kasbga yo'naltirish borasidagi fikrlarni o'rganish, ularni amaliy hayotga tadbqiq etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli kasb tanlashga yordam beradi. Bu esa bolalarni yoshligidanoq kasb-hunarga o'rgatish jamiyatning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ularda kasbga xos tushuncha, tasavvur va bilimlarini boyishiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'oziyev E.G'. “Ontogenez psixologiyasi”.-T.. Noshir. 2010
2. Yusupov E. Yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirish yo'llari.- T.. O'qituvchi, 1996. – B. 187.
3. G'oziyev, E.G'. (2012). *Umumiy psixologiya. Toshkent-2012.*
4. Yo'ldoshev J.A Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali №2(2) 2026.
5. Barkamol avlod tarbiyasida tarixiy, madaniy va ma'naviy merosning ahamiyati. Maqolalar to'plami. Toshkent 2015. B 344.